

Abdumannatov Abdumajit Matayevich
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

ALISHER NAVOIY MA'NAVY MEROSINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI

Ushbu maqolada buyuk shoir va mutafakkir, davlat arbobi Alisher Navoiyning ma'naviy ma'rifiy merosi va uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni masalalari bayon etilgan. Shuningdek, Alisher Navoiyning ma'naviy merosini chuqur o'rganish va uni yoshlar tarbiyasidagi o'rnini takomillashtirish zaruriyati yuzasidan ma'lumotlar va takliflar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, ma'naviyat, ma'rifat, meros, yoshlar, tarbiya.

РОЛЬ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ АЛИШЕРА НАВОИ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ

В данной статье описывается духовно-просветительское наследие великого поэта и мыслителя, государственного деятеля Алишера Навои и его место в воспитании молодежи. Также освещены информация и предложения относительно необходимости глубокого изучения духовного наследия Алишера Навои и повышения его места в воспитании молодежи.

Ключевые слова: Алишер Навои, духовность, просвещение, наследие, молодежь, образование.

THE ROLE OF ALISHER NAVOI'S SPIRITUAL HERITAGE IN YOUTH EDUCATION

This article describes the spiritual and educational legacy of the great poet and thinker, statesman Alisher Navoi and his place in youth education. Also, information and suggestions regarding the need to deeply study the spiritual heritage of Alisher Navoi and to improve its place in the education of young people are highlighted.

Key words: Alisher Navoi, spirituality, enlightenment, heritage, youth, education.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi "Yangi O'zbekiston-Uchinchi renessans sari" g'oyasi asosida o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Bunday sharoitda davr talablariga javob bera oladigan jismoniy sog'lom, ma'naviy etuk, mustaqil fikrga ega bo'lgan barkamol avlodni shakllantirish davlatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabr kuni ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqida "Biz hozirgi keskin sharoitda g'oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob berayaptimi? Agar biz bu yorug' dunyoda "o'zbek", "O'zbekiston" degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo'lsak, bu savollarga bugun javob berishimiz va ularni hal etish bo'yicha amaliy harakatlarni bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo'ladi",-deb ta'kidladi.[1].

Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida ham "O'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish"ga alohida e'tiborni qaratdi[2].

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda buyuk shoir va mutafakkir, atqli davlat arbobi, millatimizning quyoshi bo'lgan Alisher Navoiyning ma'naviy merosi tayanchimiz va suyanchimiz bo'lib xizmat qiladi. Sababi, mutafakkirning bosib o'tgan hayot yo'llari, insonparvarlik g'oyalari jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Salkam olti asrdirki bu umudbaxsh g'oyalar nafaqat xalqimizga balki butun bashariyatga xizmat qilib kelmoqda. Shu bois Navoiy bobomizga AQSH poytaxti Vashingtonda, Yaponiyaning poytaxti Tokioda, Rossiya Federatsiyasi poytaxti Moskva va Ozarbayjonning poytaxti Boku shaharlarida haykallar qo'yildi, asarlari bir necha tillarga tarjima qilinib, dunyo xalqlarining ko'ngil mulkiga aylandi.

Navoiyning asarlarida yuksak insoniy fazilatlar, ona tilimizning beqiyos soʻz boyligini namoyon etkanligi uchun ham u zot millionlar qalbidan joy oldi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov oʻzining “Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch” asarida buyuk mutafakkir haqida fikr bildirib: “Inson qalbining quvonchu qaygʻusini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuygʻusi ham bizning ong shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa yoshlarimizni qanchalik koʻp bahramand etsak, milliy maʼnaviyatimizni yuksaltrishda jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarini kamol toptirishda shunchalik qudratli maʼrifiy qurolga ega boʻlamiz”, - degan edi.[3].

Mutafakkirning xalqparvarlik gʻoyalaridan biri har bir inson oʻz xalqiga xizmat qilishi, foyda keltirishi xalq manfaaitini oʻz manfaaitidan yuqori qoʻyishi edi. Hazrat xalqqa ish bilan ham soʻz bilan ham koʻngil bilan ham foyda keltirish kerakligini aytgan. El-ulus, raiyat manfaati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy vatanparvar, inson deb bilgan.

Davlatimiz rahbari ham “Bir engdan qoʻl chiqarib, bir yoqadan bosh chiqarsak, biz Vatan boʻlamiz”, - degan fikrlarida atoqli davlat arbobining vatanparvarlik toʻgʻrisidagi gʻoyalari koʻz oldimizdan oʻtadi. Alisher Navoiy oʻzining ijtimoiy faoliyatida va asarlarida har bir ota-ona farzandlariga yaxshi ism qoʻyishi, uni yaxshi muallim qoʻlida oʻqitishi, kasb-hunar oʻrgatishga alohida eʼtiborini qaratgan. “Bolani kichik yoshidan boshlab tarbiyalash kerak. Tarbiya orqali shaxsda insoniy fazilatlar shakllanadi. Insonning insonligi uning nasl-nasabida, aslzoda boʻlishida emas, balki uning tarbiyalanganlik darajasida, imonli-eʼtiqodli boʻlishida ekanligini uqtiradi”[4].

Tabiatan yalqov, injiq ishyoqmas, xulqi yomon bolalarni tarbiya va oʻqitish orqali tuzatish mumkinligini taʼkidlaydi. “Odobli kishi ochiqyuzli, hushmuomala, yoqimli boʻladi. Shu bois bunday odamlarni el-ulus hurmat qiladi, eʼzozlaydi”. [5].

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida taʼkidlashicha yoshlar oʻz jamiyatining kamoloti uchun quyidagi fazilatlariga yaʼni toʻvba, zuhd, tavakkul, qanoat, sabr, tavoze, adab, zikr, rujo, tavajjuh kabi sifatlarga ega boʻlishi lozim. Ushbu fazilatlar inson qalbini tugʻyon va isyondan saqlaydi, unga huzur, halovat bagʻishlaydi, hotirjamlikka undaydi, sabr- bardoshli va irodasini baquvvat qiladi.

Muhokama. Mutafakkir asarlarida komil insonni shakllantirishning mazmuni va usullarini ham ifoda etgan. Masalan, bolalarga jismoniy jazo berish kerak emas, balki hushmuomalalik bilan muomalada boʻlishni, ammo bu jarayonda ham meʼyoridan oshirmaslikni taʼkidlaydi.

Allomaning asarlarida shaxsning har tomonlama barkamol boʻlib voyaga etishi koʻp jihatdan ularning jismonan sogʻlom va baquvvat boʻlishlariga bogʻliqligiga ham eʼtiborqaratilgan. Tadqiqotchil Z.Rasulovning taʼkidlashicha “Farhod avvalo bilim olishga, ilm oʻrganishga zoʻr bergan, soʻngra jismoniy mashqlarni mukammal oʻzlashtirgan... U endi jangovorlik sir-asrorlarini egallashga harakat qildi. Farhod nishonga otish, nayzabozlik, kurash tushish, qilichbozlik mashqlarida hammani lol qoldiradi”. “Mahbub ul-qulub” asarida turmushning achchiq chuchuklarini oʻz boshidan kechirgan, hayot saboqlari asosida xulosalar chiqargan musofir donishmandning pand-nasihatlarini oʻz aksini topgan. Ul zot “Safarning foydalari” xususida toʻxtalib, “Tavoze va adabning asosini azob va mashaqqat tashkil qiladi, ulugʻ ishlarni amalga oshiruvchi asosiy vosita bu-safardir”, - deydi. U tiriklik mazmuni qilib harakatni belgilaydi. Navoiyning sayohat haqidagi oʻgitlari bejiz emas. “Safar kishilarni olam ajoyibotlaridan va gʻaroyibotlar dunyosidan habardor qiladi” Safar yoʻlda jismoniy harakat koʻpayadi, mashaqqatli toʻsiqlarni bosib oʻtish asabni teranlashtiradi, aʼzoldagi modda almashinuvi tezlashadi, taom tez hazm boʻladi. [6].

Muhimi mamlakatimizda ichki va tashqi turizmni rivojlantirishga eʼtibor qaratilayotgan bir paytda sayr va safar haqidagi daʼvatlari hozirgi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotgan yoʻq.

Hazrat dunyoviy ilmlar barcha ayniqsa, ilmu badan, yani badan ilmini oʻrganishini har bir inson uchun alohida ahamiyat kasb etishini ulugʻlaydi.

Shoirning “Nazmul javohir” asarida taom eyish qoidalariga rioya qilish salomatlikni saqlashning muhim talablaridan biri ekanligi oʻz ifodasini topgan. Ushbu gʻoyalarning mamlakatimizda sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, ovqatlanish madaniyatiga rioya qilish bugungi kun bilan hamohang ekanligiga ishonch hosil qilasan kishi.

Mutafakkirning maʼlum bir fan asoslarini yoki kasb-hunar sirlarini oʻrganishga layoqatli, isteʼdodli bolalarni tarbiyalashga alohida ahamiyat berishi jamiyat uchun katta foyda keltiradi, deydi. Shu bilan birga past saviyada taʼlim beruvchi maktabdorlarni tanqid qiladi. Aniqrogʻi ular haqida fikr

yuritib "Maktab tutuvchi" gunohsiz yosh bolalarga jaf qiluvchidir... U yosh bolalarni azoblashga rag'batlantirilgan, ularni kaltaklashga o'rgatgan o'zi rahmsiz, miyasi po'lat va ko'ngli toshdir. G'azabdan qoshi chimirilgan, gunohsizlarga achchiqlanishga odatlanganidir. Ularning ko'pchiligida ko'ngli qattiqligi va ta'ma kasalligi oshkor va o'zlari aql kamligiga giriftor".

Alisher Navoiyning fikricha, bolalarga ta'lim tarbiya beradigan kishi ma'lumotli va o'qitish yo'llarini bilishi lozim. U o'qitish ishini har qanday tasodifan kishilarga topshirilishini qoralagan. Bolani tarbiyalash va unga ilm berish uchun bilimdon, pedagogik mahoratga ega bo'lish kerakligini ta'kidlaydi. O'qituvchiga yuksak talablarni qo'yadi va o'qituvchi mehnatini ulug'laydi:

"Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamoq bo'lmas ado oning haqqin yuz ganch ila", -

degan satrlarida siz bilan bizga saboq bergan, Vatan, O'zbekiston, tinchlik, halollik, to'g'rilik, insof, adolat, yaxshilik degan so'zlarni o'rgatgan ustozlarning haqlarini katta boyliklar bilan ado etib bo'lmasligini qayd etgan. Ustozlik maqomiga erishish uchun ko'p o'qishimiz, uqishimiz, mehnat qilishimiz, Navoiyning insonparvarlik g'oyalarini, ma'naviyatini qalb va vijdon amriga aylantirishimiz lozim.

Tasavvuf ilmining bilimdoni, Navoiyning muhiblaridan biri zabardast adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul "Navoiyga qaytish" kitobida: "Yoshlarimiz Navoiyni qanchalik chuqur va puxta bilsa, ma'rifat, ezgulik, komillik sirlarini o'shancha kengroq egallaydi. Navoiyning so'zlari diliga o'rnatilgan odam, o'zi istasin-istamasin, odamiylik sharafiga va kuch-quvvatini idrok etadi. Navoiy saboqlariga amal qilgan kishi o'z-o'zidan xalq dardu tashvishlarini engillatishga bel bog'laydi fikrni-fikrsizlikka, ilm-ma'rifatni-nodonlikka va jaholatga qarshi qurol o'rnida ishlatadi. Navoiyni etarli darajada bilish-adolat, diyonat va imon-e'tiqodning kuchiga ishonch demak. Ko'nglida shu ishonch g'olib bo'lgan odamlar soni jamiyatimizda qancha ko'paysa, insoniy muammolar har qalay kamayib boradi. Eng muhimi diniy haotdagi mahdudlik va chalg'ishlar yosh avlod ongida tezroq barham topadi. Bunga sira-sira shubhalanmaslik lozim", -degan edi.[7].

Darvoqe, mustaqillik yillarida Alisher Navoiyning davlat boshqaruvi, tilimiz, madaniyatimiz, ma'naviyatimiz, adabiyotimiz, milliy pedagogikamiz rivojida tarixiy xizmatlarini chuqur anglay boshladik. Avliyolarning avliyosi, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoirlarning sultoni bo'lgan hazrat Navoiyning qudratli shaxsiyati, betakror ijodi, ijtimoiy-siyosiy faolligi, bunyodkorlik, g'ayrat-shijoatiga bo'lgan qarashlarimiz, tasavvurlarimiz, fikr-mulohazalarimiz tubdan o'zgardi. Ammo bu etarli emas. Aniqrog'i, Navoiy merosini faqat tavallud kunlarida emas, balki yil davomida, umrimiz davomida o'rganishimiz lozim. Chunki, Navoiy shaxsiyati va asarlarida bugungi kunning muammolarini bartaraf etish uchun asoslar etarli.

Natijalar. Alisher Navoiyning ma'naviy merosini chuqur o'rganish va uni yoshlar tarbiyasidagi o'rnini takomillashtirish uchun quyidagilarga e'tiborni qaratishimiz lozim. Jumladan:

- mutafakkirning asarlarini va undagi g'oyalarni tushunish uchun muqaddas islom dinimiz, tasavvuf ta'limoti, milliy tariximiz va falsafa ilmidan etarlicha xabardor bo'lishimiz kerak;

- ta'lim tizimimizning barcha bog'inlarida ta'lim-tarbiya olayotgan yoshlar uchun Navoiy asarlarining lug'atiga ehtiyoj mavjud;

- pedagoglar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida "Navoiy pedagogikasi" maxsus kurs yoki tanlov fan sifatida o'qitilishi kerak;

- maktabgacha ta'limga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotgan bir paytda shu yoshdagi bolalar uchun alloma asarlarining qahramonlari asosida multfilm va multimedialar tayyorlanib joylarga etkazilib berilishi kerak;

- ichki va tashqi turizm rivojlanayotgan bugungi kunda "Alisher Navoiyning Samarqanddagi qadamjolari" bo'ylab o'quvchi va talaba yoshlarning sayohatlarini tashkil qilish lozim;

- o'quvchi va talaba yoshlarning Navoiyshunos olimlar bilan uchrashuvlarini o'tkazishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish lozim;

- Alisher Navoiyning ta'lim-tarbiyaga oid hikmatli so'zlarini ta'lim muassasalarining hovlilariga, koridorlariga, auditoriyalarga, ko'zga tashlanadigan joylarga ilib qo'yish va ulardan amalda foydalanishga e'tiborni qaratish;

- ta'lim muassasalarida allomaning hayoti va faoliyati, asarlarida insonparvarlik g'oyalariga bag'ishlangan erkin mavzudagi erkin insholar tanlovini o'tkazish kabi tadbirlar Navoiyni xalqqa yanada yaqinlashtiradi, yoshlar ma'naviyatini shakllantiradi. Davlatimiz rahbarining Alisher

90 Navoiyning ma'naviy merosini o'rganish to'g'risidagi qaror va ko'rsatmalarini ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Navoiy ma'naviyati bilan shakllangan yoshlar kelajagi buyuk bo'lgan O'zbekistonning taraqqiyotiga halol xizmat qiladi, uning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborining oshishiga zamin yaratgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyevning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining 2023-yil 22-dekabrda kengaytirilgan majlisidagi "Ma'naviy hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak" mavzusidagi nutqi.// "Yangi O'zbekiston" gazetasi. 2023-yil 23-dekabr, №167 (1056).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- engilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat", 2008. 176b.
4. Ibragimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika.- T.: "Sahhof", 2023. 416 b.
5. Zunnunov A. va boshqalar. Pedagogika tarixi. –T.: "Sharq" 2002. 192b.
6. Rasulov Z. Alisher Navoiy va sport. "Sport" gazetasi, 2021-yil,9-fevral 5-son (7664).
7. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. –T.: "Fan", 2007. 223b.